

Botanika institutining 80 yilligiga bag'ishlangan ocherk va maqola chop etildi



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining 80 yilligiga bag'ishlab ocherk chop etildi. Shuningdek ushbu institut dunyo olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lganligi sababli, shu mavzuda maqola tayyorlanib Scopus bazasida mavjud nufuzli Turczaninowia jurnalida nashr etildi. Maqola Botanika institutining 80 yilligi va uning asoschilari va rahbarlaridan biri, atoqli botanik, akademik Yevgeniy Petrovich Korovinning 130 yilligiga bag'ishlangan.

Ocherkda O'zbekistondagi botanik tadqiqotlarning qisqacha tarixi, Botanika instituti tashkil etilishi tarixi, institut rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan olimlar, institutning asosiy shakllanish bosqichlari va tadqiqotlar olib borilgan hamda yangi tashkil etilgan yo'nalishlari, dunyodagi nufuzli institutlar bilan hamkorligi, chop etilgan eng muhim publikatsiyalar haqida yoritilgan.

Mazkur ocherk va maqola botanik olimlarga, biologiya fakulteti o'qituvchi va talabalariga, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi va biologik xilma-xillik muammolari bilan shug'ullanuvchilarga mo'ljallangan.

Maqolaga o'tish